



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON SHAHAR KENGASHI QARORI

2022 - yil 30 - sentabr

VI-64-149-7-106-K/22

Kattaqo'rg'on shahar hokimligi

### **2022-yil 2-yarim yillikda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da shakllangan mablag‘larni jamoatchilik fikri asosida yo‘naltirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5072-sonli hamda Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 20-sentyabrdagi KQ-406-IV-sonli Qarorlariga asosan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24- moddalariga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar Kengashining oltinchi chaqiriq oltmish to‘rtinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Shahar hokimligi Moliya bo‘limi mudiri F.Sadriddinovning 2022-yil 2-yarim yillikda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da shakllangan mablag‘larni jamoatchilik fikri asosida yo‘naltirish to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5072-sonli hamda Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 20-sentyabrdagi KQ-406-IV-sonli Qarorlariga muvofiq Kattaqo‘rg‘on shahar mahalliy byudjeti mablag‘lari hisobidan shakllangan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larini Nizom

talablariga asosan 1-va 2-ilovalarga muvofiq jamoatchilik fikri asosida yoʻnaltirilsin.

3. Shahar hokimligi moliya boʻlimi (F.Sadriddinov) “Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi”dan jamoatchilik fikri asosida sohalarga ajratilayotgan mablagʻlarni jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yoʻnaltirish boʻyicha loyiha smetalarni ishlab chiqsin va belgilangan tartibda moliyalashtirilishini taʼminlasin.

4. Shahar hokimligi moliya boʻlimi (F.Sadriddinov), tegishli soha vakillari “Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi”dan ajratilgan mablagʻlarni maqsadli sarflanishi yuzasidan masʼul ekanligi belgilansin hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Xalq deputatlari shahar Kengashiga hisobot kiritsin.

5. Shahar hokimligi matbuot xizmati (A.Abdixamidov), “Kattaqoʻrgʻon tongi” gazetasi tahririyati (T.Xamidov)ga jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilgan ishlar boʻyicha maʼlumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazish tavsiya etilsin.

6. “Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi”da shakllangan mablagʻlar qonunchilikda belgilangan tartibda faqat jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yoʻnaltirilsin va ushbu mablagʻlarning boshqa maqsadlarga ishlatilishi taqiqlansin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (S.Gadayev) va shahar hokimining birinchi oʻrinbosari (M.Toshpulatov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



G. Alimova

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on shahar Kengashining  
2022 yil 30 sentabrdagi  
VI-64-149-7-106-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**Kattaqo'rg'on shahri bo'yicha 2022-yil 2-yarim yillikda jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni  
moliyalashtirish bo'yicha  
MANZILLI RO'YXAT**

T/R	G'olib taklif ma'lumotlari					Amalga oshirishning dastlabki qiymati	Haqiqatda ajratilishi rejalashtiri-layotgan mablag'	Moliyalash-tirish manbasi	Buyurtmachi tashkilot	Loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan hujjatlar	Xarid qilish tartib-taomili turi
	Taklif ID raqami	Manzili	Balansda saqllovchi	Qisqacha mazmuni	To'plagan ovozlar soni						
<b>JAMI</b>		x		x	x	<b>4 084 999 995</b>	<b>3 315 000 000</b>	x	x	x	x
1	1080600085	Kattaqo'rg'on shahar, Zarifobod MFY	Kattaqo'rg'on shahar, tibbiyot birlashmasi	Tibbiyot birlashmasiga Videogastroskop apparatini sotib olish	729	350 000 000	370 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Kattaqo'rg'on shahar, tibbiyot birlashmasi	Yetkazib beruvchilardan takliflar	Eng yaxshi takliflarni tanlash
2	1080600019	Kattaqo'rg'on shahar, A.Qaxxor MFY	Kattaqo'rg'on shahar Suv ta'minoti korxonasi	A.Kaxxor MFYdagi 12 ta ko'p qavatli uylarni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash hamda oqova suvini umumiy tarmoqqa ulash. Ko'p qavatli uylar oldiga tortilgan yangi suv hamda oqova tarmog'idan ko'p qavatli uylarning xar bir xonadoniga yetkazish maqsadida oqova tizimi, suv quvurlar tortish va nasos o'rnatish.	506	360 000 000	360 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Kattaqo'rg'on shahar hokimligi	Loyiha smeta hujjatlari, ekspertiza xulosasi	Eng yaxshi takliflarni tanlash
3	1080600115	Kattaqo'rg'on shahar, Zomin MFY	Mahalla va Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi	Kattaqo'rg'on shahar Zomin MFY binosini zamonaviy ko'rinishda qaytadan rekonstruksiya qilish	470	449 999 995	470 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Mahalla va Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi	Loyiha smeta hujjatlari, ekspertiza xulosasi	Eng yaxshi takliflarni tanlash
4	1080600014	Kattaqo'rg'on shahar, Chordara MFY	Mahalla va Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi	Chordara MFY Mahalla qayta qurish	440	700 000 000	470 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	"Yagona buyurtmachi korxonasi" IK DUK	Binoni qurish to'g'risida hokim qarori, loyiha smeta hujjatlari, ekspertiza xulosasi	Eng yaxshi takliflarni tanlash
5	1080600031	Kattaqo'rg'on shahar, Qo'shhovuz MFY	Kattaqo'rg'on shahar Suv ta'minoti korxonasi	Mahalla hududidagi Obi Xayot, A.Navoiy ko'chalarini doimiy ichimlik suvi tarmoqlariga ulash	378	400 000 000	400 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Kattaqo'rg'on shahar hokimligi	Loyiha smeta hujjatlari, ekspertiza xulosasi	Eng yaxshi takliflarni tanlash

6	1080600032	Kattaqo'rg'on shahar, Islom Shoir MFY	Kattaqo'rg'on shahar, maktabgacha ta'lim bo'limi	Kattaqo'rg'on shahar Ingichka qo'rg'oni I.Shoir MFY Turkiston ko'chasida joylashgan 21 MTM hududida bolalar qamrovini oshirish maqsadida qo'shimcha binoni issiqlik tizimi va irrigatsiya tizimini ta'mirlash	291	400 000 000	300 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Kattaqo'rg'on shahar, maktabgacha ta'lim bo'limi	Loyiha smeta hujjatlari, ekspertiza xulosasi	Eng yaxshi takliflarni tanlash
7	1080600070	Kattaqo'rg'on shahar, Zarifobod MFY	Kattaqo'rg'on shahar Suv ta'minoti korxonasi	Zarifobod MFY, Bog' o'tar ko'chasiga oqava (kanalizatsiya) tizimini o'tkazish	252	100 000 000	100 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Kattaqo'rg'on shahar hokimligi	Loyiha smeta hujjatlari, ekspertiza xulosasi	Eng yaxshi takliflarni tanlash
8	1080600075	Kattaqo'rg'on shahar, G'arb Machit MFY	Kattaqo'rg'on shahar, G'arb Machit MFY	Kattaqo'rg'on shahar G'arb-Machit MFY, Davlatobod ko'chasi 138 Dom orqasidagi bo'sh turgan joyda Bolalar maydonchasi qurish	235	50 000 000	35 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Mahalla va Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi	Loyiha smeta hujjatlari, ekspertiza xulosasi	Eng yaxshi takliflarni tanlash
9	1080600071	Kattaqo'rg'on shahar, Noqis MFY	Kattaqo'rg'on shahar Suv ta'minoti korxonasi	Kattaqo'rg'on shahar Noqis MFY O'zbekiston ko'chasi 65 A hamda 65 B ko'p qavatli uylarning suv ta'minotini bilan doimiy ta'minlash uchun suv bashnyasini kapital ta'mirlash.	168	200 000 000	110 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Kattaqo'rg'on shahar hokimligi	Loyiha smeta hujjatlari, ekspertiza xulosasi	Eng yaxshi takliflarni tanlash
10	1080600012	Kattaqo'rg'on shahar, Qoriravot MFY	Mahalla va Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi	Qoriravot MFY Mahalla binosini zamonaviy qayta qurish	167	800 000 000	470 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	"Yagona buyurtmachi korxonasi" IK DUK	Binoni qurish to'g'risida hokim qarori, loyiha smeta hujjatlari, ekspertiza xulosasi	Eng yaxshi takliflarni tanlash
11	1080600066	Kattaqo'rg'on shahar, Balandchordara MFY	Kattaqo'rg'on shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar Balandchordara mfy Sh Odil ko'chasini asfalt 400 metr	151	275 000 000	230 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Kattaqo'rg'on shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	Loyiha smeta hujjatlari, ekspertiza xulosasi	Eng yaxshi takliflarni tanlash
<b>Taqsimlanmagan mablag'</b>							<b>397 000 000</b>				

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on  
shahar Kengashining  
2022 yil 30 sentabrdagi  
VI-64-149-7-106-K/22-son qaroriga  
2-ilova

**Kattaqo'rg'on shahri bo'yicha 2022-yil 2-yarim yillikda o'tkazilgan  
tashabbusli byudjet jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan ID 1080600085  
loyihani amalga oshirish bo'yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar)**

**REESTRI**

				ming.so'm
<b>T/R</b>	<b>Tovar (xizmat) nomi</b>	<b>Soni</b>	<b>Bozor narxi</b>	<b>So'mmasi</b>
1	Videogastroskop	1	370000	370 000
<b>Loyihaning amalga oshirish jami qiymati</b>				<b>370 000</b>